

## SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA O‘ZBEK TILI ME’YORLARINING AHAMIYATI

Zuhriddinova Farangiz Baxriddin qizi

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*

*2-bosqich talabasi*

**Annotasiya:** *Siz ushbu maqolada savodxonlikni oshirish, ta’lim sohasiga qaratilgan e’tibor, o‘zbek tili me’yorlari va ularning kelib chiqish tarixi haqida so‘z boradi. Ta’lim sohasini rivojlantirishda hozirgi kunda zamonaviy punktuatsiyaning imkoniyatlar kengligi va hozirgi kundagi ahamiyati ifodalangan.*

**Kalit so‘zlar:** *O‘zbek tili me’yorlari, punktuatsiya, me’yor, „Irq bitigi“, „Turkiston viloyati gazetasi, turush belgilari.*

Adabiy til umumxalq tilining sayqallangan shakli sifatida me’yor hamda qoidalar asosida ish ko‘radi. Milliy adabiy tilni, uning og‘izaki va yozma shakllarini puxta egallashda me’yorlarning o‘rni muhimdir. Tilshunoslikda me’yor tushunchasi mutaxassislar tomonidan qabul qilingan, ma’qullangan va til egalariga tushunarli bo‘lgan til birliklarining nutq jarayonida qo‘llanish holati va imkoniyatini anglatadi. Har qanday tilning muayyan qolipga solingan, belgilangan me’yorlarning borligi o‘sha til qoidalarining qat’iyligi, o‘rganilishi qulayligini ta’minlovchi muhim omillaridandir. Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligida adabiy til me’yorlari yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan, kitoblar nashr etilgan. Masalan, “Adabiy norma va nutq madaniyati” kitobida o‘zbek adabiy tili quyidagi me’yorlar asosida ish ko‘rishi qayd etilgan:

1. Fonetik me’yorlar.
2. Leksik-semantik me’yorlari (so‘z qo‘llash).
3. Talaffuz (orfoepik) me’yorlari.
4. Aksentologik (urg‘uning to‘g‘riligi) me’yorlar.
5. Grammatik me’yorlar.
6. So‘z yasaliş me’yorlari.
7. Imloviy me’yorlar.
8. Grafik yozuv me’yorlar.
9. Punktuatsion me’yorlar.
10. Uslubiy me’yorlar.

Yozuv tarixiga nazar solinsa, insoniyat hozirgi tinish belgilarini qo‘llamasdan oldin ham o‘z fikrini yozuvda turli vositalar orqali to‘g‘ri anglatishga intilgani ayonlashadi. Shunday intilish yoki izlanishlar natijasida yozuvlarning o‘tmishda har xil belgilar paydo bo‘lgan. Hozirgi davr yozuvini tinish belgilarisiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki yozma nutqning har tomonlama rivojlanishi, matbuot va nashriyot ishlarining keng taraqqiy etishi, fan va texnikaning turli tarmoqlariga oid ko‘plab kitoblarning nashr etilishi yozuvning ajralmas qismi bo‘lgan punktuatsiyaga bo‘lgan hayotiy talab va ehtiyojlarni kuchaytiradi. Tilshunoslikda punktuatsiya termini tinish belgilarining o‘ziga nisbatan ishlatiladi. Punktuatsiya (lotincha punktum – nuqta) tilshunoslikning mustaqil bo‘limi

sifatida tinish belgilari tizimi va ularning qo‘llanish qonun-qoidalarini o‘rganadi. Shunday holatlar bo‘ladiki, tinish belgilari o‘rnining o‘zgarishi yoki o‘z o‘rnida ishlatilmasligi gap mazmunini butunlay o‘zgartiradi. Masalan, Afandi podshohga qarab: „Siz ahmoq odam emassiz“, - dedi. (Latifadan) Mazkur gapda ahmoq so‘zidan keyin vergul qo‘yilsa, hamda og‘izaki nutqda qisqa to‘xtam bilan aytilsa, gapdan podshohning aqlliligi emas, balki ahmoq odamligi anglashiladi. Zamonaviy rus punktuatsiyasi bilan shug‘ullangan tilshunos N.S. Valginaning shunday gapi bor: „Tinish belgilarini o‘rganish mumkin emas, balki ularni qo‘llashni o‘rganish kerak“<sup>3</sup>. Olima bu fikri zamirida tinish belgilarini keng vazifalarga, imkoniyatlarga egaligini ham nazarda tutgan bo‘lsa ajab emas. Fikrini davom ettirib yozadi: „Zamonaviy tinish belgilari o‘zida ulkan imkoniyatlarni mujassam etadi, ular yozuvchiga nafaqat fikrlarni, balki his-tuyg‘ularini ham yetkazishda yordam beradi.

Punktuatziya ijtimoiy hodisa sifatida davr o‘tishi, yozuvning taraqqiy etishi bilan o‘zgarib, takomillashib kelgan. Tabiiyki, yozuvda dastlab qo‘llanilgan tinish belgilarining qo‘yilish o‘rni hozirgi holatidan boshqacha bo‘lgan, qolaversa, vazifalar hozirgidek aniq va murakkab ham bo‘lmagan. Masalan, o‘zbek punktuatsiyasi masalalari bilan shug‘ullangan tilshunos K. Nazarov dastlab yulduzcha va romb ko‘rinishidagi o‘ndan ortiq ishoralarning nuqta vazifasida ishlatilgani haqida ma‘lumot bergan.<sup>4</sup> Bugungi kunda tinish belgilari nafaqat gapning sintaktik qurilishi, intonatsiyasiga, balki semantik strukturasi, ifoda maqsadiga ham ta‘sir etadigan muhim vositaga aylangan. Punktuatziya yozuv singari millatning madaniy boyligi hisoblanadi. Unda fan, ta‘lim, matbuot, nashriyot, maorif va madaniyat xodimlari, umuman, jamiyat hayotining barcha jabhasida keng foydalaniladi. Punktuatziyaning paydo bo‘lish davri turli tillarda har xil bo‘lib, ularning xususiyatlari ham bir-biridan farqli bo‘lgan. Masalan, an‘anaviy punktuatsion tizimning shakllanishi Yevropa yozuvida o‘n beshinchi asrdan, rus yozuvida o‘n sakkizinchi asrdan, o‘zbek yozuvida o‘n to‘qqizinchi asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Shu sababli punktuatsiya tarixi har bir xalqning yozuv tarixi, madaniyati asosida o‘rganiladi.

O‘zbek punktuatsiyasi taraqqiyotida o‘zbek vaqtli matbuotning birinchi qaldirg‘ochi bo‘lgan „Turkiston viloyati gazetasi“ salmoqli o‘rin tutadi. Bu gazeta o‘sha davr o‘zbek madaniyati, o‘zbek adabiy tili va o‘zbek grafikasining namunasi sifatida ham muhim hujjat hisoblanadi. O‘zbek punktuatsiyasining kelib chiqishi tarixi, uning shakllanishi va rivojlanishi, taraqqiyot qonunlarini o‘rganishda tadqiqotchilar mazkur manbaga asoslanadilar. Jumladan, K. Nazarov o‘z tadqiqotida „Turkiston viloyati gazetasi“ ga ko‘p murojaat qilgan. Tinish belgilari haqidagi dastlabki ma‘lumotlar, Ashurali Zohiriy va Abdurauf Fitrat asarlarida uchraydi. Jumladan, Fitrat tinish belgilarini turush belgilari nomi ostida o‘rganib „Navh“ asarida 12 ta tinish belgilarini keltiradi va shunday nomlaydi: „Nuqta (.), bir tinish (;), yarim tinish (,), so‘rash belgisi (?), undash belgisi (!), qo‘sh nuqta (:), tirnoqlar („“), yoylar ( ) to‘rtqo‘l yoylar [ ] , ulkan yoylar { }, chiziq (-), nuqtalar (...)“ Fitrat „Navh“ asarida tinish belgilari haqida shunday deydi: „Turush belgilari – so‘zlarni to‘plab, bir-biriga bog‘lab gap tuzishda o‘y qulay anglasin deb turli belgilar ishlaymiz. Bularning barchasi birdan turush belgilari yoki soddacha turushlar deyiladi. Punktuatziya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, uning tez tushunilishini ta‘minlashda benihoya zaruriy vositadir.

Xulosa, savodxonlikni oshirishda orfoepiya – to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rni qanchalik ahamiyatga ega bo‘lsa, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash ham shunchalik muhimdir. Tinish belgilarining gapda to‘g‘ri qo‘llanilishi bizni to‘g‘ri fikrlashga va ongimizni o‘stirishga yordam beradi. Zero, yozuvda va kitoblarni nashr qilishda tinish belgilarining to‘g‘ri ishlatilishi nafaqat yozuv egasining, balki millatning saviyasini, yozuv madaniyatini ko‘rsatib beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E., Boboyeva A, Asomiddinova M, Adabiy norma va nutq madaniyati.– Toshkent, 1983.–B.75.
2. Valgina N.S Aktualniy problem sovremennoy ruskoy punktuasi–M, 2004–B.12.
3. Nazarov K. O‘zbek punktuatsiyasi tarixi –Toshkent, 1976.–B.7.
4. Fitrat „Navh“.–B.8.
5. Fitrat. Ko‘rsatilgan asar.–B.6.